

**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jsru>**TRENDS IN THE TRAINING OF PERSONNEL WITH A SCIENTIFIC DEGREE DURING THE LAST FIVE YEARS OF FUNDAMENTAL ECONOMIC CHANGES IN UZBEKISTAN****Shahrukh Sh. Fazliddinov***Independent researcher**Institute of Personnel Training and Statistical Research**Uzbekistan**E-mail: fshshohruh@gmail.com***ABOUT ARTICLE**

Key words: Academic staff, higher education, scientific organizations, research, problem, deficiency, positive, negative, independent, costs, self-support, quality of education, corruption, adaptation, scientific research, post-secondary education, authority, youth, potential, achievement, advantage, solution, doctorate, funding, benchmark, business, analysis, financial independence, activity, responsibility, opportunity, education, flexibility, students, teachers, international standards, perspectives, cooperation, initiative, foreign university, branches, last five years, changes, analysis conclusion, action strategy, education system, resolutions and decrees, experiences of foreign countries, market economy, globalization process, teaching, subjects, reforms, quality level, new system of teaching, measures, education and training, promotion of a teacher, creating conditions for development, salary, material incentives.

Received: 21.11.23**Accepted:** 23.12.23**Published:** 25.12.23

Abstract: In the last five years, several resolutions and decrees have been adopted in the field of education. In particular, the resolution of the President of the Republic of Uzbekistan on July 11, 2019 No. PP-4391 "On measures to introduce new management principles into the system of higher and secondary special education" and Decree No. DP-5763 of the President of the Republic of Uzbekistan on July 11, 2019 "On measures to reform management in the field of higher and secondary special education" were approved. In addition, on the results achieved after the execution of the above resolutions and decrees, the decision DP-61 of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 24, 2021 "On measures to provide financial independence to state higher education institutions" was approved and within the framework of the decision, financial independence has been given to 36 higher education institutions, as well as the effect of these reforms on the quality of higher education, the impact on the level of corruption in higher education institutions, the positive and negative aspects of these reforms and their consequences.

O'ZBEKISTON SO'NGI BESH YIL, TUB IQTISODIY O'ZGARISHLAR DAVRIDA ILMIY DARAJALI KADRLAR TAYYORLASH TENDENSIYALARI**Shohruh Sh. Fazliddinov***mustaqil izlanuvchi**Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Ilmiy darajali kadrlar, oliy ta'lim, ilmiy tashkilotlar, tadqiqot, muammo, kamchilik, ijobiy, salbiy, mustaqil, xarajatlar, oʻz-oʻzini qoplash, ta'lim sifati, korrupsiya, moslashtirish, ilmiy-tadqiqot, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, vakolat, yoshlar, salohiyat, yutuq, afzallik, yechim, doktorantura, moliyalashtirish, meʼzon, biznes, tahlil, moliyaviy mustaqillik, faoliyat, javobgarlik, imkoniyat, ta'lim, moslashuvchanlik, talabalar, oʻqituvchilar, xalqaro standartlar, istiqbollar, hamkorlik, tashabbus, xorijiy universitet, filiallar, soʻnggi besh yil, oʻzgarishlar, tahlil xulosa, Harakatlar strategiyasi, ta'lim tizimi, qaror va farmonlar, xorijiy davlatlar tajribalari, bozor iqtisodiyoti, globallashuv jarayoni, oʻqitish, fanlar, islohotlar, sifat darajasi, oʻqitishning yangicha tizimi, chora-tadbirlar, ta'lim va tarbiya, oʻqituvchining mavqeyini oshirish, shart-sharoitlarni yaratish taraqqiyot, oylik maoshi, moddiy ragʻbatlantirish.

Annotatsiya: Soʻnggi besh yilda ta'lim sohasida bir qancha qaror va farmonlar qabul qilindi. Xususan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyul “Oliy va oʻrta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4391-son qarori hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyul “Oliy va oʻrta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5763-son farmonlari tasdiqlangan boʻlib undan tashqari yuqoridagi qaror va farmonlarning ijrosi taʼminlanishi ortidan qanday natijalarga erishilganligi toʻgʻrisida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabr “Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-61-son qarori tasdiqlanib qaror doirasida 36 ta oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berilganligi hamda sohadagi ushbu islohotlar natijasida oliy ta'limning sifat darajasiga qanchalik aks etishi, oliy ta'lim muassasalaridagi korrupsiya darajasiga ta'siri, ushbu islohotlarning ijobiy va salbiy tomonlari qanday boʻlishi va uning oqibatlarini haqida tahliliy fikrlar olib borilgan.

ТЕНДЕНЦИИ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ С НАУЧНОЙ СТЕПЕНЬЮ ЗА ПОСЛЕДНИЕ ПЯТЬ ЛЕТ КОРЕННЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Шахрух Ш. Фазлиддинов

Независимый научный сотрудник

Института подготовки кадров и статистических исследований

Узбекистан

E-mail: fshshohruh@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Научный состав, высшее образование, академические организации, исследование, проблема, дефицит, положительный, отрицательный, независимый, затраты, самоокупаемость, качество образования, коррупция, адаптация, научные исследования, послесреднее образование, расширение прав и возможностей, молодежь, потенциал, достижение, преимущество,

Аннотация: За последние пять лет в сфере образования было принято несколько решений и указов. В частности, постановлением Президента Республики Узбекистан от 11 июля 2019 года № ПП-4391 «О мерах по реформированию управления в сфере высшего и среднего специального образования» и от 11 июля 2019 года утвержден Указ № УП-5763 «О мерах по реформированию управления в сфере

решение, докторантура, финансирование, эталон, бизнес, анализ, финансовая независимость, деятельность, ответственность, возможность, образование, гибкость, студенты, преподаватели, международные стандарты, перспективы, сотрудничество, инициатива, иностранный университет, филиалы, последние пять лет, изменения, вывод анализа, стратегия действий, система образования, решения и указы, опыт зарубежных стран, рыночная экономика, процесс глобализации, обучение, науки, реформы, уровень качества, новая система обучения, мероприятия, образование и обучение, повышение положения учителя, создание условий для развития, ежемесячная заработная плата, материальное поощрение.

высшего и среднего специального образования». Кроме того, о том, какие результаты были достигнуты после реализации вышеперечисленных постановлений и указов, Указ Президента Республики Узбекистан от 24 декабря 2021 года утвержден № ПП-61 «О мерах по обеспечению финансовой самостоятельности государственных высших учебных заведений». В рамках постановления предоставлена финансовая независимость 36 высшим учебным заведениям и как эти реформы в сфере отражают качество высшего образования, влияние на уровень коррупции в высших учебных заведениях, каковы положительные и отрицательные стороны были сделаны эти реформы и их Аналитические заключения о последствиях.

KIRISH

Shunday gap bor – taraqqiyot manzili sari oshiqayotgan jamiyatda inson aqlu zakovatisiz o‘z o‘rniga ega bo‘lishi amri mahol.

Rivojlangan mamlakatlarning taraqqiyot yo‘liga nazar tashlasak, ularning aksari ilm-fan rivoji va iqtidorli yoshlari bilan shu darajaga yetganiga guvoh bo‘lamiz. Zero, buyuklar aytganidek, bugun katta moddiy boyliklarga ega o‘lkalar emas, iqtidorli va salohiyatli yoshlari bor davlatlarga chinakam farovonlikka erishmoqda.

Xususan, O‘zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida barcha soxalarda islohotlar amalga oshirib kelinyapti. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati shakllanmoqda. Globallashuv jarayoni har bir davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqishni va ro‘yobga chiqarishni talab qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi va 2018 yil 25 yanvardagi “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5313-son, “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli farmonlarini yaratilishi yangi O‘zbekiston ta’lim tizimini barpo etishda katta rol o‘ynamoqda.

ASOSIY QISM

O'zbekistonda so'ngi besh yil ichida tub iqtisodiy o'zgarishlar davrida ta'lim sohasiga berilayotgan e'tibor va ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan imzolangan hujjat [1] va O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi farmonda [2] hamda Vazirlar Mahkamasining qarorida qayd etilgan [3].

Adabiyotlarni ko'rib chiqish shuni ko'rsatdiki, oliy o'quv yurtlari hamda ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tashkilotlaridagi islohotlarni maqsadli auditoriya (o'qituvchilar, talabalar, ilmiy izlanuvchilar, ish beruvchilar va boshqalar) nazarida oliy ta'lim muassasalarining jozibadorligi va ulardagi imkoniyatlarning oshirishga imkon beradigan raqobatdosh ustunliklarni aniqlashni o'z ichiga oladi [4].

Maqolada analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish kabi umumiy ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan hamda oliy o'quv yurtlariga nisbatan tashkilotlarning rivojlantirish konsepsiyalarining mavjud tasniflarini qo'llash imkoniyatlari baholangan [5].

Oliy ta'lim muassasasini rivojlantirish konsepsiyasining uslubiy asoslarini tahlil qilish usullari, OTM rivojlantirish strategiyasini tashkil etish bo'yicha ishchi dasturlar va qo'llanmalar, zamonaviy veb-vositalardan OTMni rivojlantirish samaradorligini oshirish vositalaridan biri sifatida foydalanish bo'yicha pedagogik tajribani umumlashtirish, ushbu tadqiqot muammosi bo'yicha o'qituvchilar bilan suhbatlar usullari ham qo'llanildi [6].

Prezident Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonida: "O'zbekistonning 10 ta oliy ta'lim muassasasi 2030 yilga borib xalqaro tashkilotlar mingtaligidan joy olishi kerak". Bu vazifa, butun jamiyatga kuch bag'ishlashi tayin. Xuddi shu tarixiy xujjatda "Uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlar asosida amalga oshiriladi:

- oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish;
- ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;
- oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini oshirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ilm-fanning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;
- ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar ta'sirchanligini oshirish.

Xususan, ta'limning rivoji bilan butun bir davlatning kelajagini belgilash mumkin. Respublikamizdagi ta'lim sohasining rivojlanishida biz albatta rivojlangan xorijiy davlatlar tajribalaridan keng foydalanishga katta e'tibor berishimiz zarur.

Shu boisdan davlatimizda tashkil etilgan dunyoning eng salohiyatli oliy o'quv dargoxlaridan Angliyaning Westminster universiteti, Italiyaning Turin politexnika instituti, Singapur menejmentni rivojlantirish oliygohi, Janubiy Koreyaning INHA kommunikatsion texnologiyalar universiteti hamda Toshkent shahridagi Yodju texnika instituti, AQShning Webster universiteti, Rossiyaning Gubkin nomidagi neft va gaz universiteti, Lomonosov universiteti va G.V.Plexanov nomli iqtisodiyot universiteti filiallarining tashkil etilgani ham ta'lim tizimining jahon talablariga mos rivojlanishi omili hisoblanadi [7].

Hurmatli prezidentimiz tashabbuslari bilan muammolarni hal etish hamda ta'lim va tarbiya masalasini umummilliy harakatga aylantirishda o'qituvchining mavqeyini yuksaltirish, ustoz muallimlarga munosib shart-sharoitlarni yaratish maqsadida pedagog hodimlarning ish haqqi bosqichma-bosqich oshirib borilmoqda.

Yoshlarning iqtidori va salohiyatini to'g'ri yo'naltirish, umumta'lim fanlarni o'qitishning butunlay yangicha tizimi yaratildi.

Mamlakatimizda prezident maktabi va ixtisoslashtirilgan hamda ijod maktablari tashkil etildi. Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar ham bugungi kunga kelib o'z natijalarini bermoqda. So'nggi besh yilda yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9 foizdan 20 foizga yetkazildi. Jumladan 10 ta nodavlat hamda 19 ta xorijiy OTMLar filiallari tashkil etildi. Xorijiy universitetlar filiallari 26 taga yetkazildi [8].

So'nggi besh yilda ta'lim sohasida bir qancha qaror va farmonlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyul "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyul "Oliy va o'rta maxsus ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5763-son farmonlari [9] tasdiqlandi undan tashqari yuqoridagi qaror va farmonlarning natijasi o'laroq [10].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabr "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-61-son qarori tasdiqlanib qaror [11] doirasida 36 ta oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berildi bundan tashqari mazkur qarorda 2023 yil 1 yanvardan boshlab Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga (hozirgi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi) Respublika oliy ta'lim kengashi va Moliya vazirligi bilan kelishgan holda moliyaviy mustaqillik berilgan 36 ta oliy ta'lim muassasasining ro'yxatiga qo'shimcha ravishda davlat oliy ta'lim muassasalarini kiritish huquqi berilishi nazarda tutilgan bo'lib u 2023 yil 1 yanvardan kuchga kirgan hisoblanadi [12].

Sohadagi ushbu islohotlar natijasida oliy ta'limning sifat darajasiga qanchalik aks etishi, oliy ta'lim muassasalaridagi korrupsiya darajasiga ta'siri, ushbu islohotlarning ijobiy va salbiy tomonlari qanday bo'lishi va uning oqibatlari haqida tahliliy fikrlar olib boramiz.

Oliy o'quv yurtlarining xarajatlarini o'zi qoplashi mablag'larni taqsimlashda mustaqil bo'lishiga olib keladi. Haqiqatdan ham, rektorlar mablag'larni mustaqil ravishda taqsimlash imkoniga ega bo'lsa, xodimlarni ham moddiy jihatdan rag'batlantira oladi va bu o'z navbatida ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Ammo oliy ta'lim darajasini o'qituvchilar oylik maoshini oshirish bilangina yaxshilash ehtimoldan ancha uzoq. Shu o'rinda bir narsaga aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Gap shundaki, ta'lim sifati va o'qituvchilarning ish haqi bir-biriga bevosita bog'liq emas. Nima uchun? Afsuski, hozirgi kunda dars berayotgan o'qituvchilar qatlami jahon standartlaridan ancha orqada qolgan. Ko'pchiligi ingliz tilini bilmaydi.

Agar zamonaviy bilimlarning qariyb 80 foizi ingliz tilida ekani hisobga olinsa, ta'lim tizimimiz dunyodagi ilm-fan trendlaridan chetda qolgani ayon bo'ladi. Shu bois, o'qituvchilarning oylik maoshini hozir ko'tarsak ham, ularning bilim va malakasi ta'lim sifatida aks etadigan darajada oshmaydi. Uzoq muddatli reja bilan moddiy rag'batlantirish ularga o'z ustida ko'proq ishlash, o'z malakasini oshirish imkonini beradi va shu bilan ta'lim sifati yaxshilanishiga ko'maklashadi. Biroq tez orada oylik maoshni oshirish va boshqa turdagi moddiy rag'batlantirish ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Oliy ta'lim muassasalari mustaqil bo'lishining korrupsiya darajasiga ta'sir ko'rsatishiga keladigan bo'lsak, bu masalada ham vaziyat bahslidir. Bir tomondan, oliy o'quv yurti rektorlari mablag'larni mustaqil ravishda taqsimlash, o'qituvchilar ish haqini oshirish huquqiga ega bo'lsa, ularning pora olishga bo'lgan intilishi ancha kamayadi. Boshqa tomondan esa, bunday mustaqillik butunlay teskari natija berishi ham mumkin. Hozirgi kunda oliy ta'limda resurslar (o'quv anjomlari, kompyuterlar va b.) markazlashgan holda taqsimlanadi. Agar oliy o'quv yurtlariga mustaqillik berilsa, ushbu vazifada vazirlikdagi o'quv anjomlari uchun mas'ul bo'lgan bitta amaldor o'rnini har bir oliy o'quv yurtida xo'jalik ishlari bo'yicha ma'sul bo'lgan xodimlar egallaydi. Ular mansab vakolatlarini suiste'mol qilishi korrupsiyaning tizimda yanada kuchayishiga olib keladi.

Mazkur islohotning ijobiy jihatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- oliy ta'lim muassasalari mustaqilligi kuchayishi, korxonalar bilan hamkorlik qilish, xalqaro hamkorlikka intilishning oshishi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish darajasi o'sib borishi;
- ish beruvchilarning talab va takliflaridan kelib chiqqan holda, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashni ko'paytishi;
- talabalarning shartnoma puli, yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilish maqsadida ustama haqlar va boshqa moddiy rag'batlantirish turlari miqdorini mustaqil ravishda belgilash;
- bakalavriat va magistraturaning yangi yo'nalishlarini ochish.

Ushbu islohotning salbiy jihatlari:

- professor-o'qituvchilar orasida ishsizlik darajasining o'sish ehtimoli;

- oliy o'quv yurtlari ma'muriyatida xizmat vakolatlarini suiste'mol qilish holatlarining avj olish ehtimoli;

- ta'limda to'lov-shartnoma tizimiga to'la o'tilishi natijasida aholining ehtiyojmand qatlami vakillarining ta'lim olish imkoniyati keskin darajada kamayishi;

- oliy ta'lim muassasalarida har qanday yo'l bilan mo'may pul topishga bo'lgan intilishning o'sishi, pul topish maqsadida to'lov-kontrakt asosida talabalarni haddan tashqari ko'p miqdorda qabul qilish ehtimoli;

- o'zini o'zi to'la moliyalashtirishga o'tish ommaviy va talabgor bo'lmagan mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim beradigan oliy o'quv yurtlarini yoki fakultetlarni moliyaviy ahvolini qiyinlashtirishi mumkin.

Umuman olganda, bu – yaxshi tashabbus. Biz sovet ta'lim tizimidan meros qolgan rejali tizimdan qutulishimiz kerak. Oliy ta'lim muassasalariga kvotalarni rejali tarzda taqsimlash rejali iqtisodiyotga xosdir. Bozor iqtisodiyotida esa, ta'lim tizimiga tegishli bozor mexanizmlarini tadbiq etishimiz kerak. Oliy o'quv yurtlari xarajatlarini o'zi qoplashi va mamlakat ehtiyoji uchun zarur bo'lgan yo'nalishdagi va miqdordagi mutaxassislarni yetishtirib berishi kerak. Boshqacha aytganda, qancha va qanday mutaxassislarni tayyorlashni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (hozirgi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi) emas, bozor belgilab beradi. Biz bu tashabbusni ma'qullaymiz, ushbu chora chala-yarim holatda emas, to'laligicha amalga oshirilishini tarafdorimiz [13].

So'nggi besh yildagi o'zgarishlarni isboti sifatida quyidagi 1-jadvalni ko'rishimiz mumkin.

Oliy ta'lim tashkilotlari

(o'quv yili boshiga)

1-jadval

№	Ko'rsatkichlar	2015 / 2016	2016 / 2017	2017 / 2018	2018 / 2019	2019 / 2020	2020 / 2021	2021 / 2022
1.	Oliy ta'lim tashkilotlari soni, birlik	69	70	72	98	119	127	154
2.	shu jumladan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari	7	7	7	10	16	18	25
3.	ularda talabalar, ming kishi	264,3	268,3	297,7	360,2	441,0	571,5	808,4
4.	Kunduzgi	263,9	267,9	287,5	313,0	360,1	441,9	553,9
5.	Kechki	-	-	-	1,2	7,3	11,5	26,5
6.	Sirtqi	0,4	0,4	10,2	46,0	73,6	118,1	228,0
7.	10 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan oliy ta'lim tashkilotlari talabalari	84	84	93	110	130	165	229
8.	Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan talabalar, ming kishi	63,0	61,2	63,0	114,5	138,1	174,9	235,9
9.	Oliy ta'lim tashkilotlarini bitirgan mutaxassislar, ming kishi	66,3	64,1	67,4	70,3	70,8	83,9	103,9

**Hozirgi kunga kelib jami OTMlari soni 187 tani tashkil qilmoqda.*

Bugun jahonda barcha sohalarda rivojlanish, takomillashish tendensiyasi juda yuqori sur'atda kechmoqda. Bu yurtimiz ta'lim sohasidagi jadal islohotlarda ham o'z ifodasini topmoqda. Xususan, oliy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va boshqa bir qator me'yoriy hujjatlar qabul qilindi.


Quyidagi tahliliy diagrammada ko'rib turganimizdek oxirgi besh yilda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ta'lim sohasida olib borayotgan islohotlari va oliy ta'lim muassasalari faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish borasida yaratib berilgan shart-sharoitlarning natijasi o'laroq oliy ta'lim muassasalari sonining oshganini guvohi bo'lamiz. Oliygozlarning sonini oshirishning asosi sifatida mamlakatimizda mavjud bo'lgan katta-katta oliy ta'lim muassasalari o'zlarining boshqa viloyatlarda filiallarini ochishlari hamda jahonga mashhur bo'lgan xorijiy oliy ta'lim muassasalari yurtimizda olib borilayotgan islohotlardan to'liqlanib berilgan imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda o'zlarining filiallarini tashkil qildilar.

Jahon mehnat bozorida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida tayyorlash faoliyatimizning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi ana shu maqsadda o'tgan yil "El-yurt umidi" jamg'armasi hamda oliy ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorlik va grant dasturlari doirasida 1345 nafar professor-o'qituvchi xorijiy oliy ta'lim hamda ilmiy tadqiqot muassasalariga malaka oshirish va stajirovka o'tash uchun yuborilgan bo'lib ularning 579 nafari Yevropa, 172 nafari Amerika, 82 nafari Osiyo, 512 nafari MDH mamlakatlarida tahsil olmoqda.

2021 yilga kelib, yurtimizda oliy ta'lim muassasalari soni 154 taga yetdi. Oliy ta'limga qabul kvotasi uch barobar oshirildi. Misol uchun, o'tgan yilda 170 ming nafardan ortiq yigit-qiz talabalar safidan joy olgani, davlat grantlari 7 ming 250 taga yoki 25 foiz oshirilgani xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi bo'lgan yoshlarning yuqori bilim va malakaga ega, raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishi, oliy ta'lim olishi uchun keng imkoniyat va sharoit yaratilishiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotganiga yaqqol dalildir [14].

Misol tariqasida aytishimiz mumkinki Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutiga "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti, uning Buxoro va Qarshi filiallariga alohida institut maqomi berildi. "Yangi O'zbekiston" universiteti tashkil etilgani yurtimizda yuksak intellektual salohiyatga ega, jahon mehnat bozori, ilm-fan va texnologiyalar olamida raqobatbardosh, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni chuqur o'zlashtirgan, yuqori malakali, mustaqil fikrlaydigan, vatanparvar kadrlarni tayyorlash borasidagi muhim qadam bo'ldi. Bularning natijasini quyidagi diagrammada ko'rishimiz mumkin (1-rasm) [15].


1-rasm. Oliy ta'lim tashkilotlari soni (birlikda)



Mamlakatimiz ta'lim tizimidagi tub ijobiy burilishlar xalqaro tashkilotlar tomonidan muntazam e'tirof etilmoqda. Jumladan, QS xalqaro reyting kompaniyasining rivojlanayotgan Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlari reytingida O'zbekiston Milliy universiteti o'tgan yili 351+ natija ko'rsatgan bo'lsa, 2022 yil uchun e'lon qilingan reytingda 100 pog'ona yuqori ko'tarilib, 251+ o'rinni egalladi.

Bundan tashqari, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti 211+ o'rin bilan o'tgan yilgi ko'rsatkichidan 40 pog'ona yuqori ko'tarildi. Toshkent davlat texnika va Samarqand davlat universitetlari o'tgan yilgi 351+ o'rinni saqlab turibdi.

2016 yilda mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari soni 70 ta bo'lib, qamrov 9 foizni tashkil etgan bo'lsa qisqa muddatda oliy ta'lim muassasalari soni ikki barobardan ko'proqqa ortgani va umumiy qamrov 28 foizni tashkil etgani nafaqat yoshlarning, balki umumjamiyatning intellektual salohiyati oshayotganidan dalolatdir. Avvallari bir oiladan bir kishi oliy ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lgan bo'lsa, bugun bir oilaning ikki-uch a'zosi uchun shunday sharoit mavjud. Yanada quvonarlisi, oliy ta'limga qamrov izchil kengayib, 50 foizga oshirilishi ko'zda tutilayotgani O'zbekiston yoshlarining global mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Quyidagi diagrammada oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan talabalar soni bilan tanishib chiqishimiz mumkin (2-rasm).



XULOSA

Yuqoridagi tahliliy jadval va diagramalarda ko'rib chiqqanimizdek oxirgi besh yildagi o'zgarishlarning natijasi o'laroq 2017 yildan boshlab oliy ta'lim muassasalari sonining oshganini guvohi bo'ldik. Bu davrda ta'lim dargohlarining soni oshishi bilan birgalikda ularning imkoniyatlari ham kengayib u yerda tahsil olayotgan talabalar va ilmiy tadqiqot olib boruvchi yosh olimlarning son

jihatidan ham sifat jihatidan ham oshdi. Masalan: Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimida tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul kvotalarining soni anchagina sezilarli darajada oshirildi va yana bir quvonarli jihati shundaki ilmiy darajali kadrlar tayyorlashda bir bosqichlidan ikki bosqichli tizimiga o'tilishi bo'ldi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki hozirga qadar oxirgi besh yilda faqatgina kvotalar sonini oshirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilgan bo'lsa albatta bu yaxshi o'zgarish hisoblanadi lekin, bundan bu yog'iga sifatga ham e'tibor berishimiz va malakali ilmiy darajali kadrlar yetishtirish bo'yicha choralar ko'rishimiz kerak bo'ladi, aks holda birgina raqamlarga qarab qolsak va sifatga e'tibor bermasak mamlakatimizda ko'p miqdordagi sifatsiz ilmiy darajali kadrlar yetishtirgan bo'lamiz.

Yuqoridagi o'rganishlarimiz natijasida o'tgan 5 yil mobaynida ta'lim sohasida bir qancha yengillik va shart-sharoitlar yaratilganini guvohi bo'ldik lekin shunga qaramasdan talaygina kamchiliklarimiz mavjud. Misol uchun: oliy ta'lim muassasalaridagi kirish imtihonlarining yengillashtirilgani yaxshi lekin, o'qishga kirgan talabaning bilim olish darajasi hamon pastligicha qolmoqda. Shu sababli talabalarga sifatli ta'lim berish maqsadida Xorij tajribasidan kelib chiqqan holda amaldagi qonun hujjatlariga ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish kerak.

Yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimi oldida bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda va ularni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar beriladi:

Oliy ta'lim bilan qamrov va ta'lim sifatini ta'minlash sohasida:

- amaldagi malaka talablari, o'quv reja va dasturlari mazmun jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish;

- oliy ta'lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o'zaro hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo'yicha ishlarni samarali yo'lga qo'yish, ish beruvchilarning oliy ta'lim mazmunini shakllantirishdagi ishtirokini ta'minlash;

- talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirish;

- ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg'ulotlar samarali tashkil etish, tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga moslab ta'lim berish;

- professor-o'qituvchilarning xorijiy tillar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'zlashtirish darajasi pastligi sababli ularning kasbiy mahorati bugungi kun talablaridan ortda qolmoqda shu sababli ularning zamonaviy ko'nikmalarini shakllantirish;

- o'quv adabiyotlari yetishmovchiligi oldini olish va kamaytirish, mavjud adabiyotlarning aksariyat qismini zamon talablariga moslashtirish, o'quv adabiyotlari sifatini yaxshilash hamda

xorijiy adabiyotlardan qo‘shimcha yoki muqobil o‘quv adabiyotlari sifatida foydalanish ishlarini yetarli darajada tashkil etish;

- oliy ta‘lim muassasalarida fan olimpiadalarini o‘tkazishning shaffof mexanizmlarini joriy etish, olimpiadalar g‘oliblari bilan ishlashni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish;

- oliy ta‘limda ma‘naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma‘naviy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g‘oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud;

Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat sohasida:

- oliy ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalari ilmiy faoliyatini hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollaridan kelib chiqib tashkil etish va tahlillar asosida innovatsion rivojlanishni prognozlashtirish faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

- innovatsion faoliyat, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlariga iqtidorli yoshlarni jalb etish natijadorligini oshirish, ta‘lim, fan va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta‘minlash;

- ilmiy-tadqiqot ishlarini ko‘proq ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud muammolar yechimiga qaratilishini ta‘minlash;

- nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda chop etiladigan maqolalarga iqtiboslar sonini ko‘paytirish;

- ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar hamda yosh olimlar faoliyatini rag‘batlantirishning ta‘sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://lex.uz/docs/5073447> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.10.2020 yildagi PF-6097-son;
2. <https://lex.uz/docs/4545884> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son;
3. <https://lex.uz/docs/3213410> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.05.2017 yildagi 304-son;
4. Алексеева М.М. Планирование деятельности фирмы: учебно-метод. пособие. М.: Финансы и статистика, 2013. 248 с;
5. Воронкова О.В. Трансформация системы образования в условиях глобализации // Глобальный научный потенциал. 2016. № 5 (62). С. 5-7;
6. Равлюткин И.В. Управление университетом в условиях новой рыночной ситуации (к концепции «нового менеджериализма») // Вопросы образования. 2004. № 3. С. 57-65.
7. [tps://uza.uz/uz/posts/bugungi-sifatli-fan-talim-ertangi-kelazhak-03-09-2020](https://uza.uz/uz/posts/bugungi-sifatli-fan-talim-ertangi-kelazhak-03-09-2020);
8. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/08/09/aripov/>;

9. <https://lex.uz/docs/4415388> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyul “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5763-son farmoni.
10. <https://lex.uz/docs/5793251> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 dekabr “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61-son qarori;
11. <https://lex.uz/docs/4415478> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11 iyul “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-son qarori;
12. <https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/4996/>;
13. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>;
14. <https://yuz.uz/news/oliy-talim-yuksalish-yolidagi-muhim-qadamlar>;
15. Milliy barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha maxsus sayt: <http://nsdg.stat.uz>;